FALSAFA

UDK: 176.7:7.056:7.01 (575.1) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a24

FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA QADIMGI DUNYO MADANIY MULOQOTI MUAMMOLARI KONTEKSTIDA

ФИЛОСОФСКАЯ КОМПАРАТИВИСТИКА В КОНТЕКСТЕ ПРОБЛЕМ ДИАЛОГА КУЛЬТУР ДРЕВНЕГО МИРА

PHILOSOPHICAL COMPARATIVISTICS IN THE CONTEXT OF PROBLEMS OF DIALOGUE OF CULTURES OF THE ANCIENT WORLD

Usmonova Laylo Raxmatullayevna[1]

[1]**Usmonova Laylo Raxmatullayevna** – Samarqand davlat tibbiyot universiteti, o‘qituvchisi PhD, O‘zbekiston Milliy Universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Qadimgi Sharq va G‘arb falsafasi insoniyatning ilm-fan, ma'naviy taraqqiyotining debochasi hisoblanadi. Rivojlanishining o‘ziga xosligi va betakrorligidan qat'iy nazar, ular ayrim umumiy qonuniyatlarga ega. Falsafiy komparativistika tarixiy-falsafiy tadqiqotlar sohasi sifatida G‘arb va Sharq falsafiy merosining turli darajadagi iyerarxiyasini qiyosiy tahlil qiladi. Falsafiy komparativistika yangi tarixiy va falsafiy paradigmalarga olib keladi va zamonaviy tarixiy jarayonni ko‘rib chiqishning yangi yo‘nalishlarini belgilaydi. Mazkur maqolada qadimgi G‘arb va Sharq madaniyatining o‘zaro munosabati yoritilgan bo‘lib, tarixiy-falsafiy jarayonlar haqidagi qarashlar, falsafa tarixi, falsafiy madaniyatlar muloqoti sifatida o‘rganilgan.

Аннотация

Философия Древнего мира является прелюдией к научному и духовному развитию человечества. Независимо от уникальности и неповторимости их развития, они имеют некоторые общие закономерности. Философская компаративистика как область историко-философских исследований сопоставляет различные уровни иерархии западного и восточного философского наследия. Философская компаративистика приводит к новым историко-философским парадигмам и определяет новые направления рассмотрения современного исторического процесса. В данной статье освещается взаимодействие древнейших культур Запада и Востока, взгляды на историко-философские процессы и история философии исследуются в системе диалога философских культур.

Abstract

Ancient Eastern and Western philosophy is the prelude to scientific and spiritual development of mankind. Regardless of the uniqueness of their development, they have some common laws. Philosophical comparativism, as a field of historical-philosophical research, compares the various levels of the hierarchy of Western and Eastern philosophical heritage. Philosophical comparativism leads to new historical and philosophical paradigms and defines new directions for considering the modern historical process.In this article, the interaction of the ancient Western and Eastern cultures is highlighted, views on historical-philosophical processes, the history of philosophy as a dialogue of philosophical cultures are studied.

Kalit so‘zlar: *falsafiy tafakkur, ibtidoiy jamoa, qadimgi dunyo, Konfutsiy ta'limoti, Zardo‘shtiylik, Avesto, komparativistika, dialektika.*

Ключевые слова: *философская мысль, первобытная община, древний мир, конфуцианство, зороастризм, Авеста, компаративистика, диалектика.*

Key words: *philosophical thought, primitive community, antiquity, teaching,comparativism, Confucianism, Zoroastrianism, Avesta, dialectic.*

KIRISH

Falsafiy komparativistika qiyosiy tadqiqotlar tarixini o‘z ichiga olgan bo‘lib, qiyosiy metafizika, qiyosiy mantiq, qiyosiy tarix va boshqa ta'limotlarda mavjud bo‘lgan qiyosiy yondashuvlarni o‘rganadi. Falsafiy komparativistika tadqiqotning nafaqat predmetini, balki usulini ham anglatib G‘arb va Sharq falsafiy an'analarining o‘zaro ta'siri va aloqadorligini o‘rganadi. Umuminsoniy bilim va madaniyat birligi paradigmasi kontekstida falsafiy komparativistikaning predmeti G‘arb va Sharq falsafiy merosining turli darajadagi ta'limotlari, tizimlari va tushunchalarini qiyoslashdan iboratdir. XIX asrdan boshlab falsafiy qiyosiy tadqiqotlar turli mintaqalar tafakkurini tushunishga qaratilgan bo‘lib, Sharq va G‘arbning o‘ziga xos va o‘zaro aloqador bo‘lgan g‘oyalarini aniqlash, tavsiflash va falsafiy tushuntirib berish zarurat darajasiga ko‘tarilgan edi. Aynan falsafa

Sharq va G‘arb madaniyatining o‘zaro aloqalarini tushunishiga yordam beradi hamda asosiy e'tiqodlari va qadriyatlarini o‘rganishning ajralmas muhim omiliga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zining tarixiy rivojlanishida falsafiy komparativistika usuli ham nazariya, ham metodologiya jihatidan rivojlana bordi. Turli falsafiy madaniyatlar muloqotining rivojlanishi, dunyo “falsafiy makonining” ochiqligi ortib borayotganligi sababli, taniqli faylasuf mutafakkirlari falsafiy komparativistikaga falsafa tarixining mustaqil tarmog‘i sifatida qaralishini ta'kidlaganlar. Falsafiy komparativistika turli madaniyatlarning o‘xshashlik, o‘zaro aloqadorlik va farqli jihatlarini o‘rganishi natijasida mazkur madaniyatlarda turli qadriyatlarni ifodalovchi an'analar muammolarini hal qilinishiga yordam beradi, ya'ni madaniyatlarning qadri, hayot va tinchlik qadr-qimmatini falsafiy tahlil qiladi. Falsafiy komparativistika o‘z muammolarini hal qilish bilan birga, turli mintaqalarda, mamlakatlarda, sivilizatsiyalarda tafakkurning rivojlanishi va mavjudligini anglash bilan bog‘liq bo‘lib, qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, huquqshunoslik, dinshunoslik, siyosatshunoslik va madaniyat sohasidagi eng ilg‘or bilimlarni o‘z ichiga qamrab oladi. [1; 8]

Xindistonning qiyosiy falsafa bo‘yicha yetakchi faylasuflaridan biri Pulla Tirupati Radju ta'kidlaganidek, Sharq va G‘arbni qiyosiy o‘rganish mavzusi Sharq va G‘arbning turli qadriyatlarini qo‘llab-quvvatlovchi falsafiy an'analarga asoslanadi. Falsafiy komparativistikaning maqsadi, xukmronlikni o‘rniga rivojlanishni, majburiylikni o‘rniga o‘zlashtirishni, dunyoqarashning torayishi o‘rniga kengayishini va cheklash o‘rniga har tomonlama gullab yashnashni nazarda tutadigan madaniyatlar sintezini ilgari surishdir. [2; 288].

H.Boltaboyev ta'kidlaganidek: “Hozirgi globallashuv jarayonida yaxlit dunyoni Sharq va G‘arb singari ikki yirik hududga bo‘lish va uning ijtimoiy omillaridan tortib, san'atga doxil tushunchalariga qadar o‘zaro qarama-qarshi qo‘yib tadbiq etish usuli mutlaqo eskirgan. Bunday yevropotsentristik metodologiya dunyo tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ayrim millatlar zakovatiga nisbatan kamsitish hamdir. Qolaversa, asrlar davomida shakllangan qiyosiy-tarixiy metodni istifoda etish jarayonida birining ikkinchisiga ta'siri nuqtai nazaridangina emas, balki o‘zaro mavjudlik qonuniyatlari asosida komparativistik va struktural metodlardan foydalanib ish ko‘rish kutilgan samara berishi mumkin” [3; 5].

Bugungi kunda falsafiy komparativistika dunyo falsafiy sintezi g‘oyasini taqdim etib, Sharq va G‘arbni o‘zaro muloqotini tushunish uchun zarur bo‘lgan yangi tarixiy va falsafiy paradigmalarga olib kelmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Falsafiy tafakkur Sharqda ham, G‘arbda ham ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o‘zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ammo mifologiyada insoniyat tarixida ilk bor bir qancha falsafiy masalalar ham qo‘yiladi: dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi, hayot va o‘lim nima va shunga o‘xshash kabilardir.

Ibtidoiy jamoada mifologik, diniy-falsafiy, axloqiy va estetik, ijtimoiy ishlab chiqarishga oid, huquqiy va boshqa tasavvurlar odamlar ongida qorishgan, bir-biridan ajralmagan holda mavjud bo‘lgan. Keyinchalik, ma'lum bo‘lishicha, bu tasavvurlar ijtimoiy ongning mustaqil shakllariga aylanadi, lekin ularning bir-biriga bo‘lgan ta'siri saqlanib qoladi. Ular asosida muayyan tarixiy davrda yashagan hamda jamiyat rivojlanishining muayyan darajasida turgan u yoki bu xalqning dunyoqarashi shakllanadi, sintezi amalga oshadi.

Nemis faylasufi Karl Yaspers «Tarix negizlari va uning maqsadi» («Истоки истории и её цель») (1948) kitobida insonparvarlik va madaniyatni tarixning asosiy mazmuni sifatida e'tirof etadi. Yaspersning eng mashxur g‘oyasi – o‘q vaqti (davriy aylana kontseptsiyasi) (идея осевого времени), ya'ni jahon tarixining asosi yaratilgan vaqt, jahon tarixining o‘qi deb nomlaydi.

Yaspersning o‘q vaqti g‘oyasining mazmuni, insoniyat ma'naviyatining asoslari shakllangan vaqt bo‘lib, bir nechta payg‘ambarlar va mutafakkirlarning faoliyati bilan bog‘liq.

Yaspers fikriga ko‘ra: «Er.av. 9-7–asrlarda insoniyatning uch madaniy olami – Old Osiyo, yunon, Hindiston va Xitoy taajublanarli ravishda bir vaqtning o‘zida, mustaqil ravishda din va falsafa sohalarida yo‘nalishi jihatdan universal bo‘lgan umumiy javob va qarorga kelganlar. Shu davrdan boshlab, Zardusht, yahudiy payg‘ambarlari, yunon faylasuflari, Budda, Lao-tszi va Konfutsiylar sinxron tarzda olam va ta’limotlarni shakllantirganlar. Buning natijasida ular

keyinchalik rivojlangan va o‘zgargan, tizimlashtirilgan, uyg‘ongan yoki transformatsiyaga uchragan, isloh qilingan. Bu o‘zaro ta'sir va jarayon natijasida jahon dinlari va insoniyat tarixining falsafiy tushuntirish yaratilgan». [4;49-50]. Yaspers fikriga ko‘ra tarixning maqsadi – madaniyatning birlashtiruvchi imkoniyatlarini amalga oshirish, ya'ni insoniyatning uyg‘un yakdilligidan iborat.

G‘arb va Sharqning o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi ularning madaniyati va falsafasining eng muhim dinamik elementlaridan biridir. Misol uchun antik dunyo tarixini yunonlarning Mesopotamiya, Eron, Kichik Osiyo, Misr xalqlarining ilmiy va mifologik g‘oyalarini o‘zlashtirganligi va tushunganligi uchun xam anglab va tasavvur qilib bo‘ladi. [5]

G‘arb va Sharq falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo‘lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, qadimgi Hindistonda falsafaning vujudga kelishi taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan.

Xind falsafasi hayot, amaliyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, dogmalardan xolidir, insonni Xudodan ajratmaydi. Qadimgi Hindistonda adabiy-estetik tafakkur mifologik e'tiqodlarni va umuminsoniy ideallarni ilgari surgan. Hind an'analarida ahloq, zavq, moddiy boyliklar kabi ijtimoiy hayotning qadriyatlari ma'naviy ozodlikka erishish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan qadriyatlar sifatida tan olinadi. Tabiatning shifobaxsh xususiyatiga ishonch Hind mifologiyasi va san'atini asosini tashkil etadi.

Falsafiy qiyosiy tadqiqotlarda Xitoy falsafasining o‘ziga hos xususiyatlariga oid qarashlar Radju tomonidan “Qiyosiy falsafaga kirish” asarida tizimli shaklda bayon etilgan. Asarda faylasuf-komparativist Chen Yuntszening qarashlari va kontseptsiyalari aks ettirilgan. Yuntszening ta'kidlashicha Xitoyda falsafa G‘arb ta'siri ostida mustaqil fanga aylangan, chunki Xitoy falsafasi hatto metafizikani insonning hissiy tabiati asosida qurishga intilgan, “abadiy haqiqatlar” esa ahloqiy xususiyatga ega edi. [6;164-167]

Yunonistonda antik falsafa miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («polislar»)da avval Kichik Osiyoning G‘arbiy qirg‘og‘ida (Ioniyada), so‘ngra – Sitsiliya orolining yunonlar yashaydigan shaharlarida va Yunonistonda – Afinada (miloddan avvalgi V asr) vujudga kelgan va qadimgi dunyo madaniyati ravnaq topishi uchun shart-sharoitlar yaratgan sinfiy, quldorlik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Qadimgi Markaziy Osiyoda falsafaning vujudga kelishi va rivojlanishi ham sinfiy (feodal) jamiyatning rivojlanishi va davlatning shakllanishi bilan bog‘liq.

Qadimgi Xitoy falsafasida ikki yo‘nalish alohida ajralib turadi. Bular - Daochilik va Konfutsiychilik. Daochilik yo‘nalishining muhim belgisi, bu-fazo (kosmos) hamda tabiatning azaliy va abadiy go‘zalligi; jamiyat va inson go‘zalligi darajasi esa ana shu borliq go‘zalligiga qanchalik o‘xshash, yaqin ekanligi bilan belgilanadi. Konfutsiychilik xulqiy go‘zallik muammosini o‘rtaga tashlaydi; axloqiy-estetik ideal uning eng muhim belgisi sanaladi. Konfutsiy fikricha, madaniyatning asosiy qismini xalqning milliy an'analari, marosimlari “li” tashkil etadi. Li — ritual, milliy rasm-rusum. Konfutsiy fikricha, milliy an'analardan yana biri - xushmuomalalik, ota-onaga, davlat rahbarlariga hurmat-ehtirom asosiy o‘rin tutishi bu xalqning yuksak madaniyat sohibi ekanligini ko‘rsatadi. Li tushunchasi milliy an'ana, rasm-rusumdan tashqari diniy e'tiqod, yaxshilik va yomonlikni, buyuklik va tubanlikni farqlovchi estetik tushuncha hamdir. Musiqa — yue ham “li”ning tarkibiy qismidir.

Yunon faylasufi Aflotun ham go‘zallikni olqishlab, yomonlikni rad etadigan odamlar ashula va musiqani yaxshi tushunadilar, deb ta'kidlaydi. Aflotun “Qonunlar”da yozishicha, go‘zallikni olqishlab mumtoz musiqani yaxshi tushunadigan, hamda yomonlik, noxushlikni rad etadigan odam yaxshiroq odamdir.

Qadimgi yunon jamiyati Yaqin Sharqda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy tizimlarning xar tomonlama ta'sir qilishi natijasida vujudga kelgan. Bu o‘z navbatida antik jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyatiga va jamiyat tuzilishiga o‘z ta'sirini o‘tkazdi. Bu qadimgi jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati va tuzilishiga sezilarli ta'sir qildi. Yunon madaniyati Yaqin Sharq, Misr va Mesopotamiya (Shumer va Bobil) sivilizatsiyalarining barcha yutuqlarini ijodiy o‘zlashtirishga xarakat qildi. Ingliz arxeologi Vulli ta'kidlaganidek, “Yunoniston o‘zida Midiya va Xettlar, Finikiya va Krit, Bobil va Misr madaniyatlarini jamladi. Ammo ildizlar yanada chuqurroqdir: bularning xammasi ortida Shumer turadi”. [7;193] Tarixchi olimlar bu tarixiy jarayonga Qadimgi Yunoniston tarixida “sharqlashgan inqilob” deb baho beradilar.

Turli xilliklarga qaramay, Sharq va G‘arb madaniy taraqqiyotida nafaqat o‘zaro bog‘liqlik, balki ma'lum bir parallelik xam mavjud. Misol uchun Sharq va G‘arb san'atida bir qator badiiy kanonlarning o‘xshashligi aniqlandi – qadimgi dunyo, Vizantiya, Hind, Tibet rangtasvir va

xaykaltaroshligida inson go‘zalligi ideallari bir xil ikonometrik nisbatlarda qurilgan. Falsafiy g‘oyalarning rivojlanishidagi paralelliklar va farqlar esa bir qator maktablar va qarashlarda o‘z aksini topadi.

Har qanday falsafiy tizimda inson muammosi, uning dunyoqarashi va ma'naviy-axloqiy dunyosi masalalari muayyan o‘rin egallaydi, bu esa o‘z navbatida shaxslararo munosabatlarni takomillashtirish masalasini hal etishga, jamiyat ijtimoiy-siyosiy tuzilishini tashkil etishga yordam beradi. G‘arb va Sharq falsafasi umuminsoniy qadriyatlarga qarab mo‘ljal oladi. U insonni hamisha qiziqtiruvchi hodisalarni o‘rganadi, Misol uchun, qadimgi sharq manbasi “Avesto”da ko‘rsatilgani kabi inson “qanday qilib yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi ish ko‘rish mumkin”, degan savolga javob topishga harakat qiladi. Bu noyob mevalardan bahramand bo‘lish uchun inson falsafiy donishmandlikni o‘zlashtirishi lozim: u dunyo va uni anglab yetish, inson va tabiat, inson hayotining mazmuni va boshqa shunga o‘xshash muammolarda mo‘ljal ola bilishi kerakdir.

Yunon faylasufi Arastu ham shoh Iskandarga nasihatida “Shuni bilgilki, o‘zing buzuq va fosih ersang, raiyatu fuqaroni isloh qilolmaysan. O‘zing adashgan, gumroh ekansan, ularga yo‘lboshchilik qilolmaysan. Axir o‘zi ko‘r odam qanday qilib o‘zgalarga rahnamo bo‘lsin? O‘zi qashshoq o‘zgani boy qila oladimi? Kimki o‘zi xoru zalil bo‘lsa, o‘zgani qanday qilib mashhuru aziz eta olsin. Bilgilki, isloh etishni istagan hech kimsa o‘zini isloh etmaguncha o‘zgalarni ham isloh eta olmaydi” kabi fikrlarini bildiradi.

Sharq va G‘arb qadimgi dunyo falsafasida idealizm o‘zining ikki ko‘rinishida: ob'ektiv idealizm va sub'ektiv idealizm sifatida namoyon bo‘ladi. Sharq falsafasida bu “yoga”, buddizm, jaynizm, zardo‘shtiylik, konfutsiychilik, daochilik falsafasi, G‘arb falsafasida – bu Pifagor va Pifagorchilar uyushmasi falsafasi, eley maktabi falsafasi, shuningdek Suqrot, Aflotun falsafasi va maktablarida o‘z ifodasini topadi. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrda yashab ijod qilgan qadimgi yunon faylasufi Aflotun ikki dunyo – “g‘oyalar dunyosi” va “narsalar dunyosi” mavjudligi haqida saboq beradi. Sharq falsafasida materiyaning diskretligi, uning tuzilishi muammosi qo‘yilmaydi. Unda materiyaga asosan jonga «xalaqit» beruvchi muayyan omil yoki shakl bilan birlikda yoki muayyan substantsional asos sifatida yondashiladi. G‘arb falsafasida bilish empirik, hissiy va oqilona jarayon sifatidagi emas, balki mantiqiy jarayon sifatida ham qaraladi, ya'ni mantiq muammolari atroflicha o‘rganiladi. Bu muammolarni o‘rganishga Suqrot, Aflotun, ayniqsa Arastu ulkan hissa qo‘shgan.

Sharq falsafasida mantiq muammolari bilan amalda hind nyaya (sansar, qoida, mulohaza, predmetga kirish, mantiq) maktabigina shug‘ullangan. Nyaya falsafiy muammolarni yechishda mushohadaning ahamiyatini alohida qayd etgan. U haqiqatning tagiga yetishning to‘rt manbai: idrok etish, xulosa chiqarish, taqqoslash va isbotlashni o‘rganadi. Bu manbalar haqiqiy bilimga erishish imkonini beradi. Umuman olganda qadimgi Sharq falsafasiga ko‘proq o‘zini o‘zi bilish xos.

“G‘oyalar dunyosi” umumiy tushunchalardan iborat, “narsalar dunyosi” esa “g‘oyalar dunyosi”ning in'ikosidir: “g‘oyalar dunyosi”da ideal mohiyatlar mavjud, “narsalar dunyosi” esa bu mohiyatlar mahsuli bo‘lgan ayrim narsalardan iborat. Aflotunning g‘oyalar haqidagi ta'limoti uning “Bazm”, “Fedon”, “Davlat” asarlarida o‘z aksini topgan, mutafakkirning “Parmenid”, “Sofist”, “Kritiy” asarlari esa g‘oyalarning moddiy dunyoga bo‘lgan munosabati muammosiga bag‘ishlangan. Aflotun fikriga ko‘ra, materiya - g‘oyaning sof “aksi”, uning “aksilmohiyati”.

Materiyaning mohiyati esa - g‘oya. Haqiqiy borliq - bu piramidani eslatadigan ideal borliq. Uning zamirida “bilish va harakat asosining mohiyati” sifatida amal qiluvchi go‘zallik g‘oyasi yotadi. Uning yonidan yaxshilik g‘oyasi va oqillik (haqiqat) g‘oyasi o‘rin oladi. Shunday qilib, Aflotun “g‘oyalar dunyosi” “narsalar dunyosi”ni vujudga keltirishini nazarda tutuvchi ob'ektiv idealizm falsafiy tizimini yaratgan.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, aksariyat Sharq va G‘arb faylasuflarining falsafiy qarashlari faqat materialistik yoki faqat idealistik xususiyat kasb etmaydi. Ularda boshqa g‘oyalar ham uyg‘unlashadi. Ammo materiya va ongning o‘zaro nisbati muammosining u yoki bu yechimi uning turli shakllarida – kosmos va tabiatni anglab yetishdan tortib inson va uning shaxsiy borlig‘iga qadar – doim u yoki bu faylasuf yoki falsafiy maktabning muayyan dunyoqarashidan dalolat beradi.

Yangi davr G‘arb faylasuflari, Gegeldan boshlab, ikki asosiy falsafiy metod – dialektika va metafizika metodlarini ilgari surganlar. Qadimgi dunyo falsafasi rivojlangan sharoitda bu metodlar faylasuflar tomonidan ongli ravishda idrok etilmagan. Ular stixiyali, aniqroq aytganda, falsafiy ta'limotlar, tizimlar va qarashlarga ichdan xos bo‘lgan metodlar sifatida amal qilgan.

Faylasuflar, odatda, hodisalarning umumiy o‘zaro aloqasini, ularning ziddiyatliligini, harakati va rivojlanishini, dunyoning yagonaligi va rang-barangligini, “umumiy yo‘l” yoki Logosni muayyan tabiiy qonun sifatida anglab yetadilar. Jumladan, Geraklit fikriga ko‘ra, tabiat (olov) uzluksiz o‘zgarish jarayonini boshdan kechiradi, ya'ni borliq manbaini u rivojlanish va o‘zgarishlarda ko‘radi: faylasuf ta'uidlaganidek: “Hamma narsa kurash orqali va zaruriyat tufayli yuz beradi”.

“Dialektika” so‘zini ilk bor Suqrot ishlatgan. Bu so‘z bilan u samarali bahslashish, fikrlar qarama-qarshiligi orqali haqiqatning tagiga yetishga qaratilgan muloqotni olib borish mahoratini ifodalagan. Dialektikaning ayni shu talqiniga sofistlar ham amal qilganlar. Ular o‘ziga xos inkor dialektikasini rivojlantirib, tinimsiz bahs-munozara muhitida haqiqatning tagiga yetishga to‘xtovsiz harakat qiluvchi, inson tafakkurini faol harakatga keltirganlar.

Dialektika muammolarini Aflotun ham o‘rgangan. U dialektika deganda nisbiy “borliq” va «haqiqiy borliq»ni bilishni tushungan. O‘zining ko‘p sonli asarlarini u antik dialektika namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan dialoglar shaklida yozgan. U harakat va harakatsizlik, tafovut va ayniyatni tahlil qilgan.

Dialektika qadimgi Sharq falsafasiga ham xos. Qadimgi Sharq faylasuflarining o‘zlikni anglash va insonning o‘z-o‘zini kamol toptirilishiga bag‘ishlangan kontseptsiyalarida, jumladan, buddizm, yoga, konfutsiychilik, zardo‘shtiylik falsafasida juda ko‘p noyob dialektik fikrlar ilgari surilgan. Masalan, Zardo‘sht ta'limotida “Axriman” va “Axuramazda” yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi va bunda yaxshilikning g‘alabasini ifodalaydi. Zardo‘shtiylik falsafasiga ko‘ra, yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida-ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Axuramazda tarafida bo‘lishi mumkin, chunki Ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, lekin yovuz Axriman uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv inson hayotining oxirigacha davom etadi.

Din qadimgi dunyoning falsafasiga, ayniqsa materialistik ta'limotlarga yot ko‘z bilan qaragan. Shu sababli antik davrning falsafiy merosini o‘zlashtirishga nisbatan xolisona yondashilmagan, bu meros qismlarga bo‘lib o‘zlashtirilgan, asosan diniy aqidalarni mustahkamlovchi idealistik g‘oyalarni tarqatishga yo‘l qo‘yilgan.

Komparativistik metod tarixiy rivojlanish va tarixiy-falsafiy bilish jarayonida yangi jihatlari bilan ham nazariy, ham usul jihatdan boyib borgan. Ijtimoiy-tarixiy amaliyotda yangi talablarning paydo bo‘lishi, turli falsafiy madaniyatlarning o‘zaro muloqot taraqqiyotining ifodasi bo‘lishi, XX asrda jahon “falsafiy makon”inida falsafiy komparativistikani alohida soha bo‘lib rivojlanishiga zamin yaratdi. M.T.Stepanyants ta'kidlaganidek: “Falsafiy komparativistikaning muammolari hozir Sharq va G‘arb muloqotini yanada yumshatishga qaratilmoqda, garchi qiyosiy tahlil metodologiyasida juda ko‘p noaniq muammolar mavjud, jumladan bu muammolar G‘arb va Sharq falsafiy muloqotining amaliy tadbiq etilishida kuzatiladi” [8;151-157].

Falsafiy komparativistikaning ahamiyati shundan iboratki, agar uzoq davrlar mobaynida Sharq va G‘arb falsafiy an'analari qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘lsa, hozirgi davrda bu sohaga muloqot va sintez orqali yondashilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, komparativistika usuli har qanday tarixiy-falsafiy tadqiqotda mavjud bo‘ladi. Falsafiy g‘oyaning shakllanishi doimo qiyosiy taxlil bosqichidan o‘tadi. Muayyan fanlarning ko‘plab nazariyalari va taxminlariga ilmiy yondashadigan komparativistika usuli bilimlarni baholash mezoniga argumentlar va kontseptsiyalardagi o‘xshash va farqli jihatlarni topishni kiritadi. Falsafada baxolash mezoni bo‘lib tarixan rivojlanayotgan, zamonaviy sivilizatsiyalar, an'analar va maktablarni o‘ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan falsafiy madaniyat hisoblanadi. Falsafiy madaniyat inson faoliyati va borlig‘ining turli sohalarini qiyosiy, tizimli va dinamik tomonlarini qamrab oladi. Falsafiy qiyosiy tadqiqotlar kontekstida madaniyatlar dialogi haqida fikr yuritish shuni ko‘rsatadiki, komparativistik yondashuv orqali falsafiy madaniyatning dialogi mavjuddir, o‘z navbatida madaniy dialog esa falsafiy komparativistikaning metodologik unsuri hisoblanadi. Madaniyatlar dialogi, xususan qadimgi Sharq va G‘arb falsafiy tafakkuri xam yirik madaniy qamrovlarda turli madaniyatlarning o‘zaro ta'siri, mintaqalarning aloqasi, ma'naviy yaqinlashuvini o‘z ichiga qamrab oladi. Bu o‘z navbatida madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini yaratishga zamin bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Колесников А.С. Философская компаративистика Восток-Запад. СПб. Издательство С.-Петербургского университета, 2004.

2. *Raju R.T.* Introduction to comparative philosophy. Lincoln, 1962. P.288.

3. H.Boltaboyev, M.Mahmudov. Adabiy-estetik tafakkur tarixi. I jild: Qadimgi davr. T.: “Mumtoz soz”, 2013.

4. Э.Ахмедова, Р.Габидулин. Культурология. Мировая культура. Академия художеств Узбекистана. Ташкент. 2001.

5. West M. L. Early Greek Philosophy and the Orient. Oxford, 1971.

6. Raju R. T. Introduction to comparative philosophy. Lincoln, 1962. P. 164-167. Ср.: Chan Wing-tsit. Basic Chinese philosophical concepts / / Philosophy East and West. 1952. Vol. 2. N2.

7. Wolly L. The Sumerians. Oxford, 1928.

8. Степанянц М. Т. Восток-Запад: диалог философов // Вопросы философии, 1989, № 12.

9. Махмудова Г. Т. МНОГОПЛАСТОВЫЙ ХАРАКТЕРЕ ЗОРОАСТРИЙСКОЙ ИСТОРИИ В КОНТЕКСТЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЦЕННОСТИ //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 373-380.

10. Tilabovna M. G. The Dualism of Ontological and Cosmological Problems in the Philosophical Teachings of the Avesta //JournalNX. – С. 835-837.

11. Махмудова Г. Т. ЗОРОАСТРИЗМ В КОНТЕКСТЕ ФИЛОСОФИИ ВОСТОЧНОГО РЕНЕССАНСА //Исследование Ренессанса Центральной Азии. – 2020. – Т. 1. – №. 1.